

birlashtirish. Pandemiya keyin bu model mashhur bo‘ldi, chunki moslashuvchanlik beradi. Samarali strategiyalar: flipped classroom, station rotation, Kahoot yoki Mentimeter orqali interaktiv savollar va Google Docs bilan guruhli ish.

Fikrimcha, gibrid modelda bir qism o‘quvchilar sinfda, bir qism onlayn bo‘lsa ham, whiteboard.fi yoki Nearpod vositalari yordamida hamma bir xil ishtirok etadi. Yuzma-yuz darslarda ko‘proq gapirish va o‘yinlar, onlaynda mustaqil topshiriqlar beraman. Natijada o‘quvchilarning avtonomiyasi oshadi. Ammo asosiy muammo – internet va qurilmalar yetishmasligi. Menimcha, O‘zbekistonda gibrid modelni muvaffaqiyatli qilish uchun o‘qituvchilarni tayyorlash va infratuzilmani yaxshilash kerak. Bu model har bir o‘quvchiga teng imkoniyat beradi.

Xulosa qilib aytganda raqamli texnologiyalar ingliz tilini o‘qitishni yanada qiziqarli va samarali qilmoqda. Nazariy asoslar konstruktivizmga tayanadi, AI shaxsiy yordam beradi, raqamli baholash tez fikr-mulohaza ta‘minlaydi, gibrid model esa moslashuvchanlik yaratadi. Lekin eng muhimi – texnologiya pedagogikadan ustun bo‘lmashligi. Men o‘qituvchi sifatida shuni tushundimki, raqamli vositalar o‘quvchilarni faollashtirsa-da, insoniy munosabat va o‘qituvchi rahbarligi hali ham asosiy o‘rinni egallaydi. O‘zbekiston ta‘lim tizimida bu yo‘nalishlarni rivojlantirish yoshlarni global dunyoga tayyorlaydi. Kelajakda AI va raqamli vositalarni chuqurroq integratsiya qilish orqali ta‘lim yanada yaxshi bo‘ladi deb umid qilaman.

Adabiyotlar

1. Mishra, S.K. & Mishra, P. (2020). Role of Digital Pedagogy in Teaching English Language.
2. Ekizer, F.N. (2025). Exploring the impact of artificial intelligence on English language learning.
3. Grab, M.Ö. (2025). Assessing language proficiency in the digital age.
4. Jaramillo Jara va boshqalar (2025). English Language Teaching Strategies in Hybrid Environments.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYADA LISONIY TEJAMKORLIK: GLOBALLASHUV DAVRIDA NUTQ MADANIYATI MUAMMOSI

Mohirjon Yodgorov Islomjon o‘g‘li

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti

“Pedagogika va tillar” kafedrasi o‘qituvchisi

+998935564546 Mohirjon7755@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalarning o‘zbek tili taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ta‘siri

filologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda lisoniy tejamkorlik tamoyilining virtual muloqotdagi ko‘rinishlari, xususan, abbreviatsiyalar, emojilar va grafik vositalarning matn tarkibidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, raqamli diskursda adabiy til me‘yorlarining buzilishi va nutq madaniyatining qashshoqlashuvi kabi dolzarb muammolar ko‘rib chiqilib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli kommunikatsiya, lisoniy tejamkorlik, nutq madaniyati, globallashuv, virtual diskurs, emoji, abbreviatsiya, netiket, o‘zbek tili.

Аннотация: В данных тезисах с филологической точки зрения анализируется влияние цифровых технологий на развитие узбекского языка в условиях глобализации. В исследовании освещаются проявления принципа лингвистической экономии в виртуальном общении, в частности роль аббревиатур, эмодзи и графических средств в структуре текста. Также рассматриваются такие актуальные проблемы, как нарушение норм литературного языка и обеднение культуры речи в цифровом дискурсе, предлагаются научно-практические пути их решения.

Ключевые слова: Цифровая коммуникация, лингвистическая экономия, культура речи, глобализация, виртуальный дискурс, эмодзи, аббревиатура, этикет в сети, узбекский язык.

Abstract: This thesis analyzes the influence of digital technologies on the development of the Uzbek language in the context of globalization from a philological perspective. The research highlights the manifestations of the principle of linguistic economy in virtual communication, specifically the role of abbreviations, emojis, and graphic tools in text structures. Furthermore, the paper examines pressing issues such as the violation of literary language norms and the impoverishment of speech culture in digital discourse, offering scientific and practical solutions to address these challenges.

Keywords: Digital communication, linguistic economy, speech culture, globalization, virtual discourse, emoji, abbreviation, netiquette, Uzbek language.

Globallashuv jarayonlari insoniyat hayotining barcha jabhalariga shiddat bilan kirib borar ekan, uning eng birinchi va asosiy obyekti sifatida til namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki tilning yashash muhitini, uning lisoniy qiyofasini va muloqot paradigmasini tubdan o‘zgartiruvchi transformatsion makon hisoblanadi. Virtual muloqot maydonining kengayishi natijasida an‘anaviy og‘zaki va yozma nutq o‘rtasidagi

chegaralar yuvilib, “ekran nutqi” deb nomlanuvchi yangi lisoniy fenomen yuzaga keldi.

Ushbu jarayonning markazida “lisoniy tejamkorlik” tamoyili yotadi. Tilshunoslikda Andre Martine tomonidan fundamental asoslab berilgan ushbu tamoyil, so‘zlovchining minimal lisoniy sarf-xarajat evaziga maksimal darajadagi axborotni uzatishga intilishini ifodalaydi. Raqamli platformalarda ushbu intilish ekstremal ko‘rinish kasb etmoqda. George Zipfning “eng kam kuch sarflash qonuni” virtual olamda mutlaq qoidaga aylanib, matnlarning ixchamlashuvi, so‘zlarning qisqarishi va ma’noning vizualizatsiyalashuviga (simvollar, emojilar) olib kelmoqda.

Biroq, bu jarayon faqatgina texnik qulaylik emas, balki jiddiy nutq madaniyati muammosini ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli tejamkorlik ortida tilning estetik jozibasi, grammatik butunligi va mantiqiy teranligi qurbon qilinayotgani kuzatiladi. Filologik nuqtai nazardan, bu holatni tahlil qilish globallashuv davrida milliy tilning o‘zligini saqlab qolish va raqamli diskursda adabiy til me’yorlarining degradatsiyasini oldini olish uchun muhimdir. Mazkur tadqiqotda raqamli kommunikatsiyadagi lisoniy tejamkorlikning tilda aks etish qonuniyatlari hamda uning zamonaviy o‘zbek nutq madaniyatiga ko‘rsatayotgan salbiy va ijobiy ta’sirlari filologik tahlil obyekti sifatida o‘rganiladi.

Raqamli platformalarda lisoniy tejamkorlik shunchaki uslubiy usul emas, balki muloqotning majburiy shartiga aylanib bormoqda. Filologik tahlil shuni ko‘rsatadiki, ushbu jarayon tilning barcha sathlarida leksikadan tortib grafikagacha o‘z aksini topmoqda. Bu yerda eng asosiy muammo shundaki, xabar tezligini oshirish maqsadida tilning morfologik va sintaktik butunligiga tajovuz qilinmoqda.

Birinchi navbatda, leksik-semantik sathdagi qisqarishlar va abbreviatsiyalarning ommalashishini kuzatish mumkin. Foydalanuvchilar o‘rtasida o‘zbek tilining morfemik qurilishiga yot bo‘lgan qisqartmalar (“*nma*” - nima, “*sqn*” - sog‘in(dim), “*mhm*” - tushunarli/mayli) yoki ingliz tili ta’siridagi akronimlar (“*LOL*”, “*OMG*”, “*ASAP*”) oddiy holga aylandi. Bu yerda muammo shundaki, so‘zning semantik yuklamasi saqlangani bilan, uning fonetik va orfografik qiyofasi buzilmoqda. Natijada, raqamli muloqotda so‘z o‘zining lisoniy boyligini yo‘qotib, shunchaki quruq axborot kodiga aylanib qolmoqda. Bu “lisoniy eroziya” jarayoni ayniqsa yoshlar nutqida adabiy til me’yorlarining zaiflashishiga sabab bo‘lyapti.

Ikkinchi ko‘rinish vizual tejamkorlik yoki piktografik vositalarning (emoji, stiker, GIF) til o‘rnini egallashi. Bugungi kunda emoji va stikerlar raqamli kommunikatsiyaning “parallel alifbosi” vazifasini bajarmoqda. Filologik nuqtai nazardan, bu holatni “matnning

regressiyasi” deb baholash mumkin. Insoniyat yozuv madaniyati orqali piktogrammalardan (suratli yozuv) iyerogliflarga, so‘ngra mukammal alifbo tizimiga o‘tgan edi. Biroq, raqamli tejamkorlik bizni yana piktogrammalarga qaytarmoqda. Masalan, “Sizdan juda minnatdorman, qilgan yordamingiz uchun rahmat” degan murakkab sintaktik qurilmali gap o‘rniga bitta "🙏" emojisini yuborish orqali foydalanuvchi lisoniy kuch sarfini tejaydi.

Ammo bu yechim ortida katta lingvistik xavf yashiringan: emotsional holatlar va nozik ma’no qatlamlarini so‘z orqali ifodalash ko‘nikmasi so‘nib bormoqda. Matn multimodal ko‘rinishga o‘tayotgani bois, so‘z boyligi chegaralanib, fikrni ifodalashda “lisoniy dangasalik” shakllanmoqda. Shunday qilib, raqamli tejamkorlik bir tomondan muloqotni tezlashtirsa, ikkinchi tomondan nutqning individual uslubini va badiiy-estetik qiymatini sezilarli darajada qashshoqlashtirmoqda.

Raqamli kommunikatsiyada lisoniy tejamkorlik tamoyilining ustuvorligi, afsuski, an’anaviy nutq madaniyati va adabiy til me’yorlari o‘rtasida jiddiy ziddiyatlarni keltirib chiqardi. Filologik nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda virtual makonda tilning “me’yorsizlanish” jarayoni kechmoqda. Bu jarayon shunchaki imlo xatolari emas, balki tilga bo‘lgan ijtimoiy munosabatning o‘zgarishi “lisoniy nigilizm” ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur muammoni bir necha fundamental jihatlar orqali tahlil qilish mumkin.

Birinchidan, savodxonlik darajasining global miqyosda pasayishi. Raqamli platformalarda matn terish tezligi orfografik va punktuatsion qoidalardan ustun qo‘yiladi. Foydalanuvchi “shundoq ham tushunarli-ku” degan noto‘g‘ri argumentga tayanib, so‘zning asosiy qiyofasini buzib ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tili uchun xos bo‘lgan “h” va “x” harflarini farqlamaslik, tutuq belgisini mutlaqo ishlatmaslik yoki “sh” o‘rniga “w”, “ch” o‘rniga “4” kabi o‘rinbosarlardan foydalanish odatiy holga aylandi. Bu yerda muammo shundaki, yozma nutq o‘zining reprezentativ funksiyasini yo‘qotib, pala-partish “qoralama” ko‘rinishiga kelib qolmoqda. Yosh avlod ongidagi orfografik intizomning bo‘shashishi kelajakda rasmiy ish yuritish va adabiy matnlarni tushunishda jiddiy to‘siqlarni keltirib chiqarishi shubhasiz.

Ikkinchidan, nutqning “robotlashuvi” va estetik degradatsiya. Zamonaviy gadjetlardagi “avtomatik to‘ldirish” tizimlari va tayyor javob shablonlari inson nutqini mexanik ko‘rinishga keltirib qo‘ymoqda. Filologiya fani tilni inson ruhining ko‘zgusi, uning individual uslubi sifatida talqin etadi. Biroq, raqamli tejamkorlik bizni tayyor, bir xil andozadagi “lisoniy qoliplar” ichiga tiqib qo‘ymoqda. Natijada, inson o‘z fikrini o‘ziga xos so‘zlar bilan ifodalash o‘rniga, texnika taklif qilgan standart birikmalar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa nutqning

emotsional-ekspressiv bo‘yoqlarini o‘chirib, uni “jonli muloqot”dan “axborot almashinuvi” darajasiga tushirib qo‘yadi.

Uchinchidan, lisoniy daxlsizlikning buzilishi. Globallashuv sharoitida ingliz tili dominantligi ostidagi “xalqaro raqamli jargonlar” milliy tilning ichki qatlamlariga asossiz ravishda kirib kelmoqda. “Voobwe”, “da” kabi ruscha yoki “comment”, “direct”, “link” kabi inglizcha so‘zlar o‘zbek tili grammatikasi bilan aralashib, “gibrid nutq” ni hosil qilyapti. Bu filologik nuqtai nazardan tilning sofligiga rahna soluvchi, uning lug‘at boyligini boyitish o‘rniga, mavjud o‘zbekcha muqobillarni iste’moldan chiqarib yuboruvchi xavfli tendensiyadir.

Raqamli tejamkorlik ortidagi nutq madaniyati muammosi shunchaki “yoshlar tili” emas, balki milliy tafakkurning tildagi aksini saqlab qolish masalasidir. Til me‘yorlariga bo‘lgan bepisandlik jamiyatda umumiy madaniyatning, mantiqiy fikrlash qobiliyatining zaiflashishiga olib keladi. Shuning uchun, raqamli kommunikatsiyadagi “tezkorlik” va “savodxonlik” o‘rtasidagi muvozanatni tiklash bugungi kun filologiyasining kechiktirib bo‘lmas vazifasidir.

Raqamli kommunikatsiyadagi lisoniy tejamkorlik va nutq madaniyati o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun faqatgina taqiqlash yoki eski qoliplarga qaytish strategiyasi samara bermaydi. Til o‘zgaruvchan tizim, raqamli muhit esa ob‘ektiv voqelikdir. Shu bois, filologik nuqtai nazardan yechimlar “moslashuv va me‘yorlashtirish” tamoyiliga asoslanishi lozim. Ushbu muammoni hal etishning bir necha fundamental yo‘nalishlarini taklif etish mumkin.

Birinchi navbatda, “Raqamli etiket” me‘yorlarini ilmiy asoslash va ommalashtirish zarur. Bugungi kunda muloqotning turli sathlari rasmiy, norasmiy, yarim rasmiy virtual makonda qorishib ketgan. Yechim sifatida, raqamli platformalar uchun uslubiy chegaralarni aniq belgilash lozim. Masalan, elektron pochta yoki rasmiy guruhlardagi yozishmalarda adabiy til me‘yorlariga punktuatsiya, to‘liq so‘z shakllari amal qilish majburiy odob ko‘rsatkichi sifatida shakllantirilishi kerak. Filologlar tomonidan ishlab chiqilgan “Internet-muloqot lug‘ati” yoki “Virtual nutq madaniyati qo‘llanmasi” kabi resurslar foydalanuvchilarga qachon tejamkorlik qilish mumkinligi va qachon bu tilga nisbatan hurmatsizlik ekanligini anglatishi lozim.

Ikkinchi yechim lisoniy adaptatsiya va milliy kontentni boyitish. Globallashuv sharoitida chetdan kirib kelayotgan raqamli neologizmlarga masalan: *repost*, *story*, *feed*, *nickname* shunchaki tomoshabin bo‘lib turmasdan, ularning o‘zbek tilining ichki qonuniyatlariga mos muqobillarini yaratish va iste’molga kiritish lozim. Bu jarayonda “lisoniy purizm” tilni haddan tashqari tozalash emas, balki “funktional yondashuv” qo‘llanilishi kerak. Masalan, raqamli tejamkorlikni saqlagan holda, inglizcha qisqartmalar o‘rniga o‘zbekcha

ixcham shakllarni masalan: *OK* o‘rniga *Xp* yoki *Xo‘p* ommaviy madaniyat orqali singdirish mumkin. Bu orqali tilning raqamli immuniteti oshiriladi.

Uchinchi va eng muhim yo‘nalish “Raqamli filologiya” ta’limini joriy etish. Maktab va oliy ta’lim tizimida ona tili darslari faqat klassik matnlar tahlili bilan cheklanib qolmasligi kerak. O‘quvchilarga ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar ustida ishlash, ulardagi xatolarni tuzatish va fikrni qisqa, ammo savodli bayon etish ko‘nikmalari o‘rgatish lozim. “Lisoniy filtr” qobiliyatini shakllantirish orqali yoshlarda raqamli jargonlarga nisbatan tanqidiy qarash uyg‘otish mumkin. Bu o‘rinda zamonaviy o‘zbek tili korpusini Uzbek National Corpus boyitish va undagi raqamli diskurs namunalarini tahlil qilish ilmiy yechimlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish texnologik vositalarni til manfaati uchun ishlashga majbur qilish. Filolog va dasturchilar hamkorligida o‘zbek tili uchun mukammal “spell-check” imlo tekshirgich tizimlarini, milliy stikerlar va emojilar to‘plamini yaratish zarur. Agar texnologiya foydalanuvchiga avtomatik ravishda xatosiz va chiroyli muqobilni taklif qilsa, “lisoniy dangasalik” ijobiy tomonga xizmat qila boshlaydi. Raqamli dunyoda tilni asrash bu texnologiyadan qochish emas, balki uni til madaniyatiga bo‘ysundirishdir. Faqatgina tizimli yondashuv orqali lisoniy tejamkorlikni nutqning qashshoqlashuviga emas, balki uning yangi, zamonaviy va ixcham ko‘rinishda boyishiga yo‘naltirish mumkin.

Globalashuv sharoitida raqamli texnologiyalarning ijtimoiy-madaniy va kommunikativ ahamiyatini tadqiq etish shuni ko‘rsatadiki, til bugungi kunda o‘zining eng murakkab transformatsiya bosqichini boshidan kechirmoqda. Ushbu tadqiqot doirasida tahlil qilingan “lisoniy tejamkorlik” tamoyili raqamli muhitning ajralmas bo‘lagiga aylangan bo‘lsa-da, u nutq madaniyati uchun ham imkoniyat, ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Filologik nuqtai nazardan xulosa qiladigan bo‘lsak, muammo raqamli vositalarning o‘zida emas, balki ulardan foydalanish jarayonida lisoniy me‘yor va estetik qimmatning boy berilayotganidadir. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, asosiy muammo matnning ixchamlashuvi ortidan kelayotgan “lisoniy qashshoqlik” va savodxonlikka bo‘lgan ijtimoiy mas’uliyatning pasayishidir. Abbreviaturalar, emojilar va gibrid nutq shakllari muloqotni tezlashtirsa-da, ular inson tafakkurining tildagi boy ifodasini cheklab qo‘ymoqda. Biroq, bu jarayonni faqat salbiy baholash va unga qarshi ma’muriy choralar ko‘rish yetarli emas. Zamonaviy filologiyaning vazifasi raqamli tejamkorlikni tartibga solish va uni milliy til manfaatlari yo‘lida shakllantirishdir. Ushbu muammolarning mantiqiy yechimi sifatida bir necha ustuvor yo‘nalishlarni belgilash lozim. Avvalo, virtual muloqot makonini “tartibsiz hudud”dan “madaniy diskurs”

darajasiga ko‘tarish zarur. Buning uchun raqamli etiket qoidalari ta’lim tizimining barcha bosqichlariga integratsiya qilinishi, yoshlarda ekran ortida ham shaxsning lisoniy qiyofasi uning intellektual salohiyatini belgilashi haqidagi tushuncha mustahkamlanishi kerak. Shuningdek, milliy tilning raqamli korpusi va dasturiy ta’minotlarini rivojlantirish orqali, texnologiyani tilga moslashtirish eng samarali strategiyadir. Ya’ni, raqamli platformalar foydalanuvchini beixtiyor to‘g‘ri, go‘zal va mantiqiy nutq tuzishga yo‘naltirishi, o‘zbek tilining o‘ziga xos imlo va grammatik qoidalarini avtomatik himoya qilishi lozim. Yana bir muhim xulosa shundan iboratki, raqamli davr filologi endi faqat qadimiy qo‘lyozmalar bilan emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi jonli, dinamik va o‘zgaruvchan matnlar bilan ham ishlashi shart. Tilning saqlanishi uning iste’moldan chiqishida emas, balki har qanday yangi muhitda o‘zligini yo‘qotmagan holda yashab qolishidadir. Raqamli kommunikatsiyadagi tejamkorlik bu vaqtni tejash vositasi, ammo u hech qachon milliy tafakkur va madaniyatning asosi bo‘lgan ona tilining qadr-qimmatini tejash hisobiga amalga oshirilmasligi kerak.

Xulosa qilib aytganda, globallashtirish sharoitida raqamli texnologiyalar tilni boyituvchi va muloqotni chegarasiz qiluvchi kuchga aylanishi uchun bizdan yuqori darajadagi “raqamli savodxonlik” va lisoniy mas’uliyat talab etiladi. Taklif etilgan yechimlar ta’limiy islohotlar, texnologik adaptatsiya va netiket me’yorlari amaliyotga tatbiq etilsa, raqamli diskurs nafaqat axborot almashish, balki milliy nutq madaniyatini namoyish etish maydoniga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘zbek tilining global axborot makonidagi nufuzi va barqarorligini ta’minlashning eng ishonchli kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N. Til. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NDIU, 2013. – 212 b. (*O‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati va til falsafasi bo‘yicha fundamental qo‘llanma*).
2. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 124 b. (*Raqamli matnlarni tahlil qilish uchun uslubiy asos*).
3. Raxmatullayeva Sh.Z. Internet muloqotining lisoniy xususiyatlari (o‘zbek tili misolida): Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent: O‘zMU, 2018. – 46 b.
4. Dadabayev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2019. – 160 b. (*Raqamli neologizmlarni o‘zbekchalashtirish masalalari uchun*).
5. Мартин А. Принцип экономии в фонетических изменениях. – М.: Изд-во иностр. лит., 1960. – 262 с. (*Lisoniy tejamkorlik nazariyasining asosi*).

6. Горошко Е.И. Лингвистика Интернета: формирование дисциплинарного парадигмального пространства. – Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе. – Орел: Карпуш, 2007. – С. 223-237.
7. Компанцева Л.Ф. Интернет-коммуникация: когнитивно-прагматический подход. – Луганск: Знание, 2008. – 494 с.
8. Crystal D. Language and the Internet. 2nd edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 316 p. (*Internet-lingvistikasining dunyo tan olgan asosiy darsligi*).
9. Baron N. S. Always On: Language in an Online and Mobile World. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 304 p. (*Raqamli muloqotning ijtimoiy-madaniy ta'siri haqida*).
10. Yusupov O. Etiquette in the Digital Age: Communicative challenges and solutions. – Journal of Foreign Languages and Linguistics, 2021. – No. 3. – P. 45-52.

MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH - ADABIY TA'LIMDA MUHIM BO'LGAN BOSQICH

Rahimova Oyshajon Inomjon qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti, o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

e-mail: Oyshaxon2440@gmail.com +998937720321

*Ilmiy rahbar: **Tillayeva R.T.***

Annotatsiya. Ushbu maqolada adabiyot darslarida muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanishning ahamiyati, samaradorligi va bu jarayondagi pedagogik metodlardan foydalanish uslublari yoritiladi. Maqolada o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ijodiy salohiyatini o'stirish hamda badiiy asarlarni chuqur tahlil qilishda muammoli vaziyatlarning o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiy ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, "fishbone", "socratic method" kabi metodlar o'quvchilarning muammoli vaziyatga qay darajada yechim topa olishiga, aqliy salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari muammoli ta'lim texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning kreativ fikrlashini, faol ishtirok etishini va badiiy asarlarni chuqurroq anglashiga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Adabiy ta'lim, muammoli ta'lim, innovatsion texnologiyalar, "fishbone" metodi, "socratic" metod, mustaqil fikrlash, badiiy tahlil, kreativ fikrlash.